

HARBIY XIZMATCHILARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Turg'unov Abdulhay Usmonjonovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti "Tarbiyaviy psixologik ta'minlashning qo'mondonlik-shtab faoliyati" mutaxassisligi bo'yicha magistratura tinglovchisi

Annotatsiya; *Ushbu maqola harbiy xizmatchilarda kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishning murakkab jarayonini o'rganadi, uning missiya muvaffaqiyatidagi muhim rolini ta'kidlaydi. Standartlashtirilgan til, og'zaki bo'lmagan muloqot, madaniy xabardorlik va aloqa kanallariga moslashish kabi bir qator jihatlarni qamrab olgan muhokama harbiy qismlarda samarali muloqotni shakllantirishda yetakchilik, o'quv mashqlari va faol tinglashning ahamiyatini ham misollar bilan o'rganib chiqadi.*

Kalit so'zlar: *Kompetentlik, kompetentsiya, kommunikativ kompetentsiya, kasbiy kompetentlik, professional vazifalarni bajarish, qat'iy iroda, ko'nikma, malaka, idrok etish, muloqot qobiliyati, shaxslararo munosabat, ijtimoiy-psixologik, mexanizmlarini shakllantirish.*

Hozirgi tahlikali, shu bilan birga shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda oliy harbiy ta'lim muassasalari bo'lajak ofitserlarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohatlar va o'zgarishlar natijasida Qurolli Kuchlarimiz tasarrufidagi harbiy qism va muassasalarda professional kadrlarga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida bo'lajak ofitserlarni intellektual salohiyatga, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishini taqozo etadi.

Mamlakat barqarorligiga qarshi qaratilgan turli xil tahdidlarning mavjudligini inobatga olsak, bo'lajak ofitserlar bo'linmalarni mohirlik bilan boshqaradigan, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan, o'z burchi va qasamyodiga sodiq qoladigan, xizmat manfaatini shaxsiy manfaatdan doimo ustun qo'yib, zimmasiga yuklatilgan vazifani sidqidildan bajaradigan vatanparvar shaxs bo'lishi lozim. Bu borada harbiy xizmatchilardan doimo o'z ustilarida tinmay ishlashlari, jismoniy, ruhiy va kasbiy jihatdan tayyorgarliklari yuqori darajada bo'lishiga erishishlari talab etiladi. Bu esa o'z navbatida Qurolli Kuchlarimiz safida harbiy xizmat o'tayotgan har bir harbiy xizmatchida, ayniqsa ofitserlar va serjantlarda kasbiy kompetentlikni tarbiyalash masalasi dolzarb ekanligiga urg'u beradi. Shu bois, bugungi kunda ofitserlar va serjantlarda kasbiy kompetentlikni tarbiyalashning barcha komponentlari, tamoyillari, mexanizmlarini shakllantirish talab etiladi. Zero, harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini tarbiyalash deganda, avvalambor chuqur bilim va yuksak intellektual salohiyat, o'z harbiy burchini bajarishda qat'iy iroda va puxta tayyorgarlik sifatlarini shakllantirish nazarda tutiladi.

Kompetensiya (lot. *competo* – loyiqman, munosibman, erishayapman) u yoki bu sohadagi bilimlari, tajribasi[1. 682].

Kompetentlik – shaxsning muayyan ta’lim yo’nalishi yoki mutaxassisligi bo’yicha olgan bilim, malaka va ko’nikmalari hamda shakllangan shaxsiy xislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo’llay olish qobiliyatidir[2. -93]. Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, ko’nikma, malaka tushunchalaridan ko’ra kengroq ma’noni anglatadi. Chunki, ular shaxsning fikrlash qobiliyati, xarakteri, ziyrakligi, dunyoqarashi, umuman irodaviy sifatlarini qamrab oladi. Bugungi kunda kompetentlik tushunchalari va ularning tarkibiga kiruvchi muhim komponentlar mazmunini aniqlash, shuningdek, ularni faoliyatning turli sohalarda shakllantirish hamda rivojlantirish muammolari bo’yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo’lib, bu ularni tasniflashni yuzaga keltiradi.

Kommunikativ kompetensiya – bu muloqot qobiliyatlari, bilim, ko’nikma va ko’nikmalar, biznes aloqalari sohasida xissiy va ijtimoiy tajribani o’z ichiga olgan shaxsning umumiy kommunikativ xususiyatidir. Muloqot qobiliyati quyidagilardan iborat:

muloqot qilish kerak bo’lgan kommunikativ vaziyatning ijtimoiy-psixologik prognozini berish;

muloqot jarayonini ijtimoiy-psixologik jixatdan dasturlash, kommunikativ vaziyatning o’ziga xosligiga asoslangan;

kommunikativ vaziyatda aloqa jarayonlarini ijtimoiy-psixologik boshqarishni amalga oshirish (2. 76-83)

Kommunikativ kompetentlik tarkibi:

muloqot nima ekanligini tushinish, uning turlarini, rivojlanish fazalarini bilishi;

kommunikativ usullar va uslublar, ularning harakatlari, imkoniyatlari va cheklovlari;

turli odamlarga va turli vaziyatlarga qarshi samarali usullar;

o’zlarining kommunikativ qobiliyatlari va usullarining rivojlanish darajasi, o’zlarining ishlaridagi samarali usullar.

Kommunikativ ko’nikmalar tarkibi:

nutq qobiliyati;

taqi va ichki ko’rinishlarni uyg’unlashtirish, fikr-mulohaza yuritish, muloqot jarayonidagi to’siqlarni yengib o’tish qobiliyati;

interfaol ko’nikmalar: muloqotni demokratik asosda qurish, qulay hissiy va ruhiy muhitni yaratish, o’zini-o’zi boshqarish qobiliyati, kasbiy etika va odob-axloq qoidalari va bu qoidalariga amal qilishi, faol tinglash qobiliyati;

ijtimoiy-perseptual qobiliyat: muloqotda sherikning hatti-harakatlarini yetarli darajada idrok etish va baholash, imo-ishoralar orqali uning holatini, istaklari va harakatlarining sabablarini aniqlash, boshqalarning shaxs sifatida munosib qiyofasini yaratish, ijobiy taasurot qoldirish qobiliyati.

Kommunikativ qobiliyatlar tarkibi:

muloqot o’rnatilgan kommunikativ vaziyatning ijtimoiy-psixologik prognozini berish qobiliyati;

kommunikativ vaziyatning o'ziga xosligiga asoslangan muloqot jarayonini ijtimoiy-psixologik dasturlash;

kommunikativ vaziyatda muloqot jarayonini ijtimoiy-psixologik boshqarishni amalga oshiri.(3. 25-31)

Jumladan, quyidagi kompetentlik turlari mavjud:

- o'zini tutish (individual) kompetentligi;
- texnik (professional) kompetentlik;
- umumiy kompetentlik;
 - maxsus kompetentlik;
- boshlang'ich kompetentlik;
- ijrochilik kompetentligi;
 - differensial kompetentlik.

O'zini tutish (individual) kompetentligi – o'zining professional vazifalarini bajarish paytida insonning individualligini xarakterlovchi kompetentlik. U shaxslararo munosabat, boshqarish usuli (stili), tahlil qilish qobiliyati, maqsadni egallashga yo'naltirilgan masalalarni o'z ichiga oladi. Bular "yumshoq talablar" yoki "yumshoq kompetensiyalar" deb yuritiladi.

Texnik (professional) kompetentlik – mehnat natijalari, professional majburiyatlarni bajarish standartlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan kompetentlik. Bular "qattiq talablar" yoki "qattiq kompetensiyalar" deb yuritiladi.

Umumiy kompetentlik – ma'lum bir kasb bilan shug'ullanuvchi barcha insonlarni xarakterlovchi kompetentlik. Shu bilan birga insonning qaysi tashkilotda ishlayotgani yoki qaysi lavozimni egallagani muhim ahamiyat kasb etmaydi. Maxsus kompetentlik – aniq professional majburiyatlarni samarali bajarish uchun kerak bo'lgan kompetentlik.

Boshlang'ich kompetentlik – topshirilgan professional vazifalarni bajarish uchun xodimga zarur bo'lgan asos, bazaviy kompetentlar.

Ijrochilik kompetentligi – erishilgan natijalarning sifatini aniqlashtiruvchi kompetentlik. Ch.Vudravning fikriga ko'ra, boshlang'ich va ijrochi kompetensiyalar o'rtasidagi farqni sezish qiyin, buning uchun ma'lum darajadagi kompetentlik kerak bo'ladi.

Differensial kompetentlik – u yoki bu darajada samarali ijrochilarni farqlashga yordam beradigan kompetentlik. Bu xildagi kompetentlikda u yoki bu professional vazifani bajarish paytida o'zini qanday tutish kerakligi tasvirlangan modellar mavjud bo'ladi.

Shu bilan birga, shunday kasbiy kompetentliklar borki, ular ko'plab kasblar uchun asos bo'lib xizmat qiladi va ishlab chiqarishda ham, ijtimoiy amaliyotda ham qo'l keladi. Yuqorida sanab o'tilgan kasbiy kompetentliklar bunga misol bo'la oladi. E.F.Zeyerning fikricha, kasbiy kompetentlik kasbiy bilimlar, ko'nikmalar yig'indisi, shuningdek, kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullari bo'lib, ular quyidagi tarkibiy qismlardan iboratdir:

– ijtimoiy-huquqiy kompetentlik – ijtimoiy institutlar va odamlarning o'zaro faoliyatlari sohasidagi bilim va ko'nikmalar, shuningdek, kasbiy muloqot yo'llari va xulqatvor qoidalarini puxta egallaganlik;

– maxsus kompetentlik – mustaqil ravishda muayyan faoliyat turlarini amalga oshirishga tayyorlik, ko'p uchraydigan kasbiy masalalarni yecha bilish va o'z mehnati natijalarini baholay olish, o'z mutaxassisligi bo'yicha yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda o'zlashtira olishga qodirlik;

– shaxsiy kompetentlik – kasbiy mahorat va malakalarni doimiy ravishda orttirib borishga qodirlik, kasbiy faoliyatda o'zini ko'rsata olish;

– autokompetentlik – o'zining ijtimoiy kasbiy imkoniyatlari bo'yicha haqqoniy tasavvurga ega bo'lish, kasbiy qiyinchiliklarni bartaraf eta olish kabi turlarga bo'linadi. Bu borada tadqiqotchi Z.K.Almardonovning bir qator tadqiqotlarda ma'lumotlar uchraydi [4].

Kompetentlikni bilim, ko'nikma va malakalarga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas. Kompetentlik bilim, ko'nikma va malaka tushunchalariga nisbatan kengroq ma'noga ega. Kompetentlik ta'lim natijasi sifatida ularni o'z ichiga oladi, lekin kompetentlikni bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi sifatida tushunmaslik kerak. Kompetentlik harbiy xizmatchilarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018 yil 10 yanvar kunidagi Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi ma'ruzasida "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash va o'qitish, navqiron avlodimizni bizning xalqimizga mutlaqo begona bo'lgan buzg'unchi g'oyalardan himoya qilish masalalariga zarur darajada e'tibor qaratilmadi. Ayniqsa, diniy ekstremizm g'oyalari berilib, yo'ldan adashgan yoshlarni sog'lom turmush tarziga qaytarishda biz Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan askar va ofitserlarimizning salohiyatidan foydalana olmayapmiz. Holbuki, Vatan himoyasida toblangan mard o'g'lonlarimiz o'zining mardlik va jasurlik fazilatlarini, yuksak vatanparvarlik tuyg'usi bilan obro'-e'tibor qozongan harbiy xizmatchilarimiz yoshlarga har tomonlama ibrat va o'rnak namunasi bo'lishi mumkin" deganda yosh harbiy xizmatchilarning ma'naviy qiyofasi va ruhiy holatini yanada yaxshilash zaruratini ta'kidlagan edi [5].

Xulosa qilib aytganda, oliy harbiy ta'lim muassasalari bo'lajak ofitserlarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish va shakllantirishda uzluksiz nazariy va amaliy tajribalar amalga oshirilishi bo'lajak ofitserlarning zarur shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Harbiy xizmatchilarda kommunikativ kompetentlik va ularning tarkibiga kiruvchi muhim komponentlar, mexanizmlar, tamoyillarni shakllantirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 4-jild – T.: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2002. -682-b.)
2. Alimov B.N. Kompetensiyaviy yondashuv-o'quvchilarning matematik savodxonligi va madaniyatini oshirish vositasi sifatida. // «Uzluksiz ta'lim» ilmiy-uslubiy jurnali, - T., 2015, 1-son.
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/arbiy-hizmatchilarning-kasbiy-kompetentligini-tarbiyalash-mexanizmlarini-ilmiy-pedagogik-takomillashtirish>
4. Alimardonov Z.SH., Harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini tarbiyalash mexanizmlarini ilmiy-pedagogik takomillashtirish. <https://cyberleninka.ru/article/n/arbiy-hizmatchilarning-kasbiy-kompetentligini-tarbiyalash-mexanizmlarini-ilmiy-pedagogik-takomillashtirish>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik Kengashidagi nutqi. 2018 y. 10 yanvar. president.uz.